



MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING AHAMIYATINI OSHIRISH

INCREASING THE IMPORTANCE OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

¹Mavlonova
Shahnoza Obid qizi

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur tadqiqotda xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xorijiy investitsiyalar kapital yetishmovchiligi sharoitida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhim tashqi moliyalashtirish manbai ekani asoslangan. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarining iqtisodiy mazmuni hamda makroiqtisodiy ta'siri jihatidan farqlanishi ko'rsatib berilgan. Qolaversa, tadqiqotda O'zbekistonda investitsiya siyosati yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgani yoritilgan. Shuningdek, 2023-2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi va xorijiy investitsiyalar ulushining ortishi mamlakat investitsiya jozibadorligi oshayotganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida investitsiyalar asosan rivojlangan hududlarda jamlangani, ammo boshqa hududlarda ham infratuzilma va diversifikatsiya orqali faollik ortib borayotgani aniqlangan. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilashda huquqiy kafolatlar, siyosiy barqarorlik va tadbirkorlik erkinligi muhim omillar sifatida asoslab berilgan.

Eng. - This study provides a scientific analysis of the role of foreign investments in ensuring the sustainable development of the national economy. It substantiates that, under conditions of capital scarcity, foreign investments serve as an important external source of financing that supports economic growth. At the same time, the study highlights the differences between foreign direct investment (FDI) and portfolio investment in terms of their economic nature and macroeconomic impact. Furthermore, the research emphasizes that Uzbekistan's investment policy is oriented toward the production of high value-added goods, modernization of industry, and diversification of the economy. It is also noted that the steady growth in investments in fixed capital during 2023-2025, along with the increasing share of foreign investments, indicates a rising investment attractiveness of the country. In addition, the study finds that investments are largely concentrated in more developed regions, although investment activity is gradually increasing in other regions as well, driven by improvements in infrastructure and economic diversification. Finally, the research identifies legal guarantees, political stability, and entrepreneurial freedom as key factors in enhancing the investment climate.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsiya siyosati, innovatsiyalar, diversifikatsiya.
❖ foreign investment, foreign direct investment, investment environment, investment policy, innovation, diversification.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonlar natijasida milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib, kapital, texnologiyalar, resurslar va bilimlarning xalqaro miqyosda erkin harakati ta'minlanmoqda. Bu esa o'z navbatida har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda tashqi iqtisodiy aloqalarning, xususan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, uning tarkibiy jihatdan yangilanishi va diversifikatsiyasini chuqurlashtirish ko'p jihatdan investitsiya siyosatining samaradorligiga bog'liqdir. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ham global iqtisodiy tendensiyalar bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Jumladan, ochiq iqtisodiyot modeliga o'tish, investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish va ulardan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va aholi

farovonligini yaxshilashning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan siyosat yuritish, investitsion muhitni yanada yaxshilash va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalar "chet el investorlarining daromad olish va kapital qiymatini oshirish maqsadida boshqa mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltiradigan moliyaviy, moddiy va nomoddiy aktivlari majmui" sifatida talqin etiladi. Ushbu investitsiyalar tarkibiga nafaqat pul mablag'lari, balki texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, intellektual mulk obyektlari va innovatsion yechimlar ham kiradi. Shu jihatdan, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi va innovatsion rivojlanishida kompleks ta'sir ko'rsatadi.

J. Dunningning "eklektik paradigma" (OLI modeli)ga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga texnologiya transferi, boshqaruv tajribasi va innovatsiyalar olib kiradi [1]. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirib, barqaror o'sishni ta'minlaydi.

P. Krugman xalqaro savdo va investitsiyalar o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va iqtisodiy integratsiyaning kuchaytirishda muhim omil ekanligini qayd etadi [2].

J. Sachs fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar iqtisodiy islohotlarni jadallashtiruvchi va infratuzilmani rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi [3].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar kompleks yondashuv asosida

tahlil qilinadi. Jumladan, S. Sugahara va B. Ochilov o'z tadqiqotlarida investitsiya muhitining shakllanishida infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, davlatning fiskal siyosati, investitsiya loyihalarining rentabelligi hamda huquqiy-me'yoriy bazaning amaliy jihatdan samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, aynan ushbu omillarning uyg'unligi investitsion jozibadorlikni belgilab beradi va xorijiy investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratadi [4].

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarning moliyaviy tizim rivojiga ta'siri masalasi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, Mollah Aminul Islam va hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalar oqimi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishini rag'batlantirishi asoslab berilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xorijiy kapitalni jalb etishga intiluvchi kompaniyalar o'z aksiyalarini mahalliy fond bozorlarida listingdan o'tkazishga majbur bo'ladi. Natijada, kapital bozorida likvidlik oshadi, jamg'armalar hajmi kengayadi hamda moliyaviy vositachilikka bo'lgan talab ortadi. Bu esa, o'z navbatida, milliy moliya tizimining chuqurlashuvi va institutsional rivojlanishiga olib keladi [5].

Hududiy darajada xorijiy investitsiyalarni jalb etish muammolari G.M. Galeeva va E.N. Kadeeva tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy determinantlari sifatida bozor sig'imi va tabiiy-resurs salohiyatiga kirish imkoniyati namoyon bo'ladi. Biroq xorijiy kapitalning ayrim hududlar va tarmoqlarda yuqori darajada kontsentratsiyalashuvi hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, sanoat jihatdan kam rivojlangan mintaqalarda investitsiya yetishmovchiligi ularning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi. Shu bois, investitsiya siyosatini hududiy muvozanatni

ta'minlash tamoyillari asosida olib borish muhim hisoblanadi [6].

Mamlakatimiz olimlaridan Sh. Mustafakulov xorijiy investiyalarning mamlakat hududlariga ta'sirini baholay turib, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi..., investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy naflik, balki ijtimoiy naflik ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaydi [7].

Sh. Oltayevning fikriga ko'ra investitsiya faoliyatini tartibga solishda va investitsiyalardan samarali foydalanishda eng muhim bo'lgan masalalardan biri - bu chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni hududlar bo'yicha optimal darajada bir tekis joylashtirish va xorijiy investorlarni hududlarga yanada ko'proq jalb qilishdir [8].

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayoni ko'p omilli tizim bo'lib, u infratuzilma rivoji, institutsional muhit sifati, moliyaviy bozorlarning shakllanganligi hamda hududiy iqtisodiy sharoitlar bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur omillarning kompleks tarzda takomillashtirilishi esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda sistemali tahlil metodlari keng qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli ravishda milliy iqtisodiyot uchun tashqi moliyalashtirish manbai sifatida namoyon bo'ladi va ular kapital yetishmovchiligi sharoitida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhim instrument hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijiy kapital oqimlarining iqtisodiy mazmuni va ularning

makroiqtisodiy ta'siri bir xil emas. Xususan, xalqaro kreditlar va qarz mablag'lari qaytarish majburiyati hamda foiz to'lovlari bilan bog'liq bo'lib, ular tashqi qarz yukining ortishiga, to'lov balansiga bosim kuchayishiga va fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarni funksional xususiyatlariga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) va portfel investitsiyalariga ajratish muhim metodologik ahamiyatga ega.

TTXI iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatadigan kompleks ta'siri bilan boshqa kapital shakllaridan ajralib turadi. TTXI investor tomonidan korxona ustidan uzoq muddatli manfaatdorlik asosida nazorat o'rnatishni nazarda tutadi (odatda kamida 10 foiz aksiyaga egalik qilish orqali). Ushbu turdagi investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar oqimini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy menejment tizimlarini tatbiq qilish, xalqaro marketing tarmoqlariga kirish imkonini kengaytirish orqali iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishiga xizmat qiladi. Empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, TTXI oqimi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi, kapital samaradorligi hamda umumiy ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortadi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda, xususan endogen iqtisodiy o'sish konsepsiyasida, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy determinantlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish orqali iqtisodiyotning ichki salohiyatini oshiradi. Bunda investitsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan institutsional muhit sifatiga bog'liq bo'lib, huquqiy tizimning barqarorligi, mulk huquqlarining himoyalanganlik darajasi, shaffof boshqaruv

mexanizmlari va korrupsiyaga qarshi kurash darajasi muhim rol o'ynaydi. Kuchli institutsional muhit xorijiy investorlar uchun ishonchli sharoit yaratib, investitsiya oqimlarining barqarorligini ta'minlaydi.

Milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimli va strategik yondashuvni talab etadi. Respublikamizda har yili qabul qilinadigan investitsiya dasturlari iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoatni modernizatsiya qilish hamda infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, kam rivojlangan hududlarga investitsiyalarni yo'naltirish orqali muvozanatli iqtisodiy rivojlanishga erishish ham muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish iqtisodiy o'sishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Biroq, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida muvozanatli va selektiv yondashuvni qo'llash zarur. Chunki ortiqcha tashqi kapitalga bog'liqlik, foydaning repatriatsiyasi, strategik tarmoqlarda xorijiy nazoratning ortishi kabi omillar milliy iqtisodiy xavfsizlikka ma'lum darajada tahdid solishi mumkin. Shu bois, davlat investitsiya siyosatida ustuvor tarmoqlarni aniqlash, yuqori samaradorlikka ega loyihalarni tanlash hamda milliy manfaatlarni himoya qilish tamoyillariga asoslangan holda investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvni kuchaytirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ularni samarali jalb qilish, oqilona taqsimlash va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash esa davlatning uzoq muddatli

iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos jihati shundan iboratki, u, avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga xizmat qiluvchi hamda zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab

chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik beradi. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyotning xomashyo yetkazib beruvchidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga transformatsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

2023-2025-yillarda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (trln. so'm) [9]

T/r	Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1.	Jami	352,1	493,7	591,1
2.	Markazlashtirilgan investitsiyalar	44,8	51,9	62,6
3.	Respublika budjeti	20,3	22,8	28,0
4.	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1,7	1,9	-
5.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari	1,6	3,6	2,1
6.	Chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostidagi olingan kreditlar	21,2	23,6	32,5
7.	Markazlashtirilmagan investitsiyalar	307,3	441,8	528,5
8.	Korxonalarining mablag'lari	84,9	87,0	90,3
9.	Aholi mablag'lari	33,3	32,0	37,5
10.	Xorijiy investitsiyalar	84,3	150,5	281,1
11.	Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	22,3	12,7	11,1
12.	Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	82,4	159,6	108,5

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2023-2025-yillar davomida moliyalashtirish manbalari kesimida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, jami investitsiyalar hajmi 2023-yildagi 352,1 trln. so'mdan 2025-yilda 591,1 trln. so'mga yetib, sezilarli darajada oshgan. Bu holat mamlakatda investitsiya faolligining ortib borayotganligini va iqtisodiy o'sishning investitsion asoslari mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar hajmi ham ijobiy dinamikani namoyon etib, 44,8 trln. so'mdan 62,6 trln. so'mgacha oshgan. Ushbu o'sishda respublika budjeti mablag'larining ulushi muhim ahamiyat kasb etib, ular 20,3 trln. so'mdan 28,0 trln. so'mgacha ko'paygan. Shu bilan birga, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari ham muayyan darajada o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lib, 2024-yilda keskin oshgan bo'lsa-da, 2025-yilda biroz kamaygan. Chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostida jalb qilingan kreditlar hajmi esa 21,2 trln. so'mdan 32,5 trln. so'mgacha ortib, markazlashtirilgan investitsiyalar tarkibida muhim o'rin egallagan.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar umumiy investitsiyalar tarkibida yetakchi o'rinni egallab, 2023-yildagi 307,3 trln. so'mdan 2025-yilda 528,5 trln. so'mga yetgan.

Bu esa iqtisodiyotda xususiy sektor va bozor mexanizmlarining roli ortib borayotganini anglatadi. Korxonalar mablag'lari nisbatan barqaror o'sishni ko'rsatib, 84,9 trln. so'mdan 90,3 trln. so'mga yetgan. Aholi mablag'lari esa biroz tebranish bilan o'sib, 33,3 trln. so'mdan 37,5 trln. so'mga oshgan.

Alohida e'tibor xorijiy investitsiyalar dinamikasiga qaratiladi. Ular 2023-yilda 84,3 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 281,1 trln. so'mga yetib, keskin o'sishni namoyon etgan. Bu holat mamlakat investitsiya jozibadorligining ortib borayotganini va xorijiy kapital oqimi jadallashayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hajmi 2024-yilda yuqori darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2025-yilda ma'lum darajada qisqargan, bu esa tashqi moliyalashtirish tarkibida muayyan

tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hajmining kamayish tendensiyasi (22,3 trln. so'mdan 11,1 trln. so'mgacha) iqtisodiyotda qarz yukini optimallashtirish va investitsiyalarni ko'proq o'z mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirishga o'tilayotganini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda investitsiyalar tarkibida markazlashtirilmagan manbalarning, ayniqsa xorijiy investitsiyalarning ulushi ortib borayotgani milliy iqtisodiyotning liberallasuvi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va xususiy sektor faolligining oshib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

2-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish, mlrd. so'm [9]

T/r	Hududlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 317,3	14 362,7	19 771,4
2.	Andijon viloyati	11 259,6	21 245,4	25 972,3
3.	Buxoro viloyati	20 127,7	40 401,8	32 986,8
4.	Jizzax viloyati	10 272,8	17 569,0	18 795,2
5.	Qashqadaryo viloyati	11 806,6	23 907,7	29 234,2
6.	Navoiy viloyati	16 313,6	27 594,9	35 373,5
7.	Namangan viloyati	10 363,2	43 959,2	50 339,2
8.	Samarqand viloyati	11 519,0	15 065,3	25 667,4
9.	Surxondaryo viloyati	11 117,3	10 087,5	15 001,6
10.	Sirdaryo viloyati	12 524,6	7 912,8	12 978,3
11.	Toshkent viloyati	25 269,7	50 029,4	53 221,7
12.	Farg'ona viloyati	9 454,0	12 710,3	23 300,2
13.	Xorazm viloyati	5 341,4	8 785,2	15 350,3
14.	Toshkent shahar	25 198,0	40 165,0	64 504,6
	O'zbekiston Respublikasi	187 884,8	333 796,3	422 496,7

2023-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish sezilarli darajada o'sdi. Milliy ko'lamda sarmoya 2023-yilda 187 884,8 mlrd. so'mdan

2025-yilga kelib, 422 496,7 mlrd. so'mga yetdi. Bu ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va hududiy barqaror rivojlanishga xizmat qildi.

Toshkent shahar va Toshkent viloyati eng katta investitsiya qabul qiluvchi hududlar bo'ldi. 2025-yilda Toshkent shahrida 64 504,6 mlrd. so'm, Toshkent viloyatida esa 53 221,7 mlrd. so'm sarmoya o'zlashtirildi. Bu hududlarda xizmat ko'rsatish, transport, moliya va sanoat tarmoqlari ustuvor bo'lib, milliy iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishga sezilarli hissa qo'shdi.

Namangan viloyati sarmoya jalb qilish sur'ati bo'yicha yetakchilik qildi: 2023-yilda 10 363,2 mlrd. so'mdan 2025-yilda 50 339,2 mlrd. so'mga yetdi. Bu hududda sanoat loyihalari va logistika infratuzilmasini kengaytirish ustuvorligi mavjud bo'lib, natijada ish o'rinlari yaratildi va hududiy iqtisodiyot rivojlantirildi.

Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo hududlarida sarmoya barqaror o'sish sur'ati bilan ajralib turdi. Masalan, Buxoroda sarmoya 2023-yilda 20 127,7 mlrd. so'mdan 2025-yilda 32 986,8 mlrd. so'mga, Navoiy viloyatida 16 313,6 mlrd. so'mdan 35 373,5 mlrd. so'mga yetdi. Bu hududlar mineral resurslar, sanoat va kimyo tarmoqlarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynadi.

Qoraqalpog'iston, Andijon, Jizzax, Farg'ona va Xorazm hududlarida sarmoya hajmi sekinroq o'sdi, ammo hududiy iqtisodiy diversifikatsiya va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, Qoraqalpog'istonda 2023-yilda 7 317,3 mlrd. so'm, 2025-yilda esa 19 771,4 mlrd. so'mga yetdi. Bu hududlar eksport salohiyatini oshirish va infratuzilma rivojlanishiga e'tibor qaratdi.

Sirdaryo va Surxondaryo hududlarida 2024-yilda sarmoya biroz pasaydi, ammo 2025-yilda yana o'sish kuzatildi. Bu hududlarda loyihalar ritmi va kredit ajratishning vaqtinchalik kechikishi bilan bog'liq edi. Shu bilan birga, ularning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish

va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ko'lamining o'sib borishi asosida qulay investitsiya muhitining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Shu o'rinda respublikamizda qulay investitsiya muhitini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy shart-sharoit va omillarning mazmuni va ahamiyatini batafsilroq bayon qilish maqsadga muvofiqdir.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Xorijiy kapital oqimi mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha moliyaviy resurslar kiritish bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi va innovatsion yondashuvlarning kirib kelishini ta'minlaydi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, eksport salohiyati kengayadi hamda iqtisodiy o'sishning sifat jihatlari yaxshilanadi. Shu bois investitsiya muhitining qulayligi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirishda, avvalo, siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Inflyatsiya darajasining nazorat ostida bo'lishi, milliy valyutaning barqarorligi hamda siyosiy tizimning izchil faoliyati investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Shu bilan birga, investorlar huquqlari va manfaatlarining huquqiy jihatdan kafolatlanishi, mulk daxlsizligi va shaffof qonunchilik tizimi xorijiy sarmoyadorlarning uzoq muddatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Investitsion jozibadorlikni oshirishda bozor infratuzilmasining rivojlanganligi va geografik joylashuvning qulayligi ham muhim rol o'ynaydi. Transport-kommunikatsiya tarmoqlari, moliyaviy institutlar va logistika tizimining samarali ishlashi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va investitsion loyihalarning tezkor amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shuningdek, mamlakatning xalqaro savdo yo'llariga yaqinligi tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirib, eksport-import operatsiyalarining samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, tabiiy resurslar salohiyati hamda malakali ishchi kuchining mavjudligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omillar sirasiga kiradi. Boy xomashyo bazasi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun asos yaratadi, yuqori malakali kadrlar esa ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, soliq va bojxona imtiyozlari, tadbirkorlik faoliyati erkinligi hamda davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi faol ishtiroki investitsion muhitning jozibadorligini yanada kuchaytiradi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish o'rinlidir.

1. Investitsion muhitni institutsional jihatdan takomillashtirish. Bunda investorlar huquqlarini kafolatlovchi qonunchilikni yanada mustahkamlash, sud-huquq tizimining mustaqilligi va shaffofligini oshirish, korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni kuchaytirish hamda "yagona oyna" tamoyili asosida investitsiya xizmatlarini raqamlashtirish.

2. Soliq va bojxona siyosatini optimallashtirish. Bu jarayonda ustuvor tarmoqlar uchun differensial soliq imtiyozlarini joriy etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, uzoq muddatli va barqaror soliq siyosatini shakllantirish va strategik loyihalarda "soliq ta'tili" mexanizmlarini keng qo'llash.

3. Infratuzilmani rivojlantirish va logistika samaradorligini oshirish. Mamlakat transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, energetika infratuzilmasini barqarorlashtirish, sanoat zonalarini va erkin iqtisodiy zonalarini kengaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish.

4. Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish. Bunda kam rivojlangan hududlar uchun alohida investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, hududiy soliq imtiyozlarini joriy etish, shuningdek har bir hududning ixtisoslashuviga mos investitsiya strategiyasini ishlab chiqish.

5. Raqamli va "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika loyihalariga keng imtiyozlar qo'llash, "yashil moliya" instrumentlarini joriy etish, raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror va uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Investitsiya muhitini kompleks ravishda yaxshilash orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dunning J.H. *Multinational Enterprises and the Global Economy*. – Wokingham: Addison-Wesley, 1993.
2. Krugman P.R., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. – Boston: Pearson, 2009.

3. Sachs J.D. *The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time*. – New York: Penguin Press, 2005.

4. Sugahara S., Ochilov B. *The Experience of The Japanese State in Increasing Investment Activity in Uzbekistan*. – 2023.// "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ilmiy-ommabop elektron jurnali. 285-291 pages.

5. Mollah Aminul Islam, Haiyun Liu, Muhammad Asif Khan, Md Tariqul Islam, Md Reza Sultanuzzaman. *Does foreign direct investment deepen the financial system in Southeast Asian economies?*// *Journal of Multinational Financial Management*, 12 February 2021. – P.13.

6. G.M. Galeeva and E.N. Kadeeva. *Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy*// *Journal of Physics: Conference Series*, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.

7. Sh.I. Mustafakulov. *Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot*. Monografiya. BMA. 2017. 208-b.

8. Sh.S. Oltayev. *O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari: muammo va yechimlar*// *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz, May, 2023.

9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb sahifasi.